

ZAKOT (USHUR) NI ADO QILISH ORQALI JAMIYATGA YETKAZILADIGAN ULKAN FOIDALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10397472>

Begimov Muhammadjon Begimovich

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasida 2-kurs magistranti.

E-mail: begimovich1990@gmail.com

Annotatsiya

Qadimda zakot asosan chorva mollaridan chiqarilgan. Zakotni yana ziroat mahsulotlaridan ham olishgan. Ziroat mahsulotlaridan olinadigan zakotni "**ushr**" deb atashgan.

Zakot masalasi faqat Alloh taoloning yagona o'ziga xos ishdir. Kim Alloh taoloning ta'limoti ila ish ko'rsa, niyatiga yetadi. Alloh o'zining oxirgi dini Islomda iqtisodiy muammolarni hal qilish zakot asosida bo'lishini ko'rsatib qo'ygan. Bugungi kun tili bilan aytganimizda, iqtisodga zakot asos qilib, olinsa, so'ngra unga boshqa islomiy-iqtisodiy omillar qo'shilsa, iqtisodiy masala yechilgan bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot masalasini olib ko'raylik. Islom bu masalani zakot orqali o'n besh asr oldin hal qilib qo'ygan. Hozirgi zamonda esa, ko'p davlatlar bu muammoni hal qila olmay boshlari qotib yotibdi. Umuman, "ijtimoiy ta'minot" degan istilohni hozirgi jamiyat AQSh va Angliya orqali 1941-yildan ishlata boshladilar¹⁴⁰. Ungacha bu narsa hayollariga ham kelmagan.

Kalit so'zlar

Ijtimoiy ta'minot, Moliyaviy muammo, Islom jamiyati, Ijtimoiy himoya, Moliyaviy ibodat, Naqd pulga ehtiyoj

Hozirgi kunda ko'pchilikni qiziqtirib keladigan masalalardan biri bu-zakotdir. Bugungi kunda har birimiz zakotning farzligi va fazilati, nimalardan zakot beriladi va nimalardan berilmaydi, kimlarga zakot berish farz bo'ladi va kimlarga berib bo'lmaydi, zakotning to'g'ri bo'lishi shartlari haqida ham batafsil ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak.

¹⁴⁰ 2021 yil 5 mart Vazirlar mahkamasining 122-son Aholini ijtimoiy 124 himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5319768>.

Qadimda zakot asosan chorva mollaridan chiqarilgan. Zakotni yana ziroat mahsulotlaridan ham olishgan. Ziroat mahsulotlaridan olinadigan zakotni “**ushr**” deb atashgan.

Hozirgi kunda zakot haqida soʻz borganda, asosan, muomaladagi pullardan zakot chiqarish tushuniladi. Qadimda esa tillo va kumush pullardan zakot chiqarilgan. Demak, biz zakotni chiqarishda, eng avval ularni qaysi mahsulotdan yoki qaysi puldan chiqarishga qaragan holda tillo va kumush pulning zakotini, naqd pulning zakotini ham, tijorat mollari zakotini, taqinchoqlar, yetimning moli va asalning zakoti (ushri) ni ham, yerosti va suvosti boyliklarining zakotini ham oʻrganib qoʻyishimiz kerak.

Sharʼiy manbalarda zikr qilingan, zakot chiqarilishi lozim boʻlgan mollardan, qoidaga binoan, zakot chiqarilaveradi. Ammo hozirgi kunga kelib, nomi sharʼiy manbalarda zikr etilmagan, ammo oʻzi daromad keltiradigan narsalar paydo boʻldi. Shuning uchun ham, koʻp odamlar zakotga oid turli masalalarni tinmay soʻrab turadilar. (Chunki aynan mana shu mavzuni oʻrganish yetarlicha emas).

Islomda moliyaviy ibodat faqat zakot bilan chegaralanib qolgan emas. Sadaqai fitr va boshqa sadaqalar hamda koʻngilli ravishda qilinadigan xayri ehsonlar ham koʻp. Ana oʻsha narsalarni yaxshilab oʻrganib olsak, oʻzimizga ham, boshqa (mulkdorlar, muhtojlar, oila aʼzolarimiz, tanishlarimiz) kishilarga ham yaxshi boʻladi.

Qurʼoni karimda “zakot” soʻzi 30 martadan ortiq kelgan boʻlsa, shundan 27 tasida namoz bilan birga zikr qilingan. Qolaversa, Paygʻambarimiz sollollohi alayhi va sallamning sunnatlarida ham zakotga alohida eʼtibor berilgan.

Zakot, (ushur, xaroj) sadaqa va ehson toʻgʻrisidagi oyatlarni jamlasak, quyidagi roʻyxat kelib chiqadi. Uni tushunishimiz oson boʻlishi uchun jadval koʻrinishiga keltirdik.

Sura oni	Sura rni	Suralarning nomi	Oyatlar
1	2	Baqara	3,43,83,177,195,215,219,245, 254,261,262,264,265,267,27,271,272,274, 76,277.
2	3	Oli imron	17,92,134,180.
3	4	Niso	37,39,77,162.
4	5	Moida	12,55.
5	6	Anʼom	141.
6	7	Aʼrof	156.

7	8	Anfol	3,60.
8	9	Tavba	5,11,18,34,35,54,60,67,71,99,103,104,121
9	13	Ra'd	22
10	14	Ibrohim	31
11	19	Maryam	31,55
12	21	Anbiyo	73.
13	22	Haj	35,41,78.
14	23	Mo'minun	4.
15	24	Nur	37,56.
16	27	Naml	3.
17	28	Qasas	54.
18	30	Rum	39.
19	31	Luqmon	4.
20	32	Sajda	16.
21	33	Ahzob	33,35.
22	34	Saba'	39.
23	35	Fotir	29.
24	41		7
25	42	Shuro'	38.
26	47	Muhammad	38.
27	51	Zoriyot	19.
28	57	Hadid	7,10,11,18,24.
29	58	Mujodala	13.
30	63	Munofiqun	10.
31	64	Tag'obun	16,17.
32	70	Maorij	24,25.
33	73	Muzzammil	20.
34	74	Muddassir	44.
35	92	Layl	5-10, 17-21.
36	98	Bayyina	5.
37	107	Mo'un	7.

Zakot masalasi faqat Alloh taoloning yagona o'ziga xos ishdur. Kim Alloh taoloning ta'limoti ila ish ko'rsa, niyatiga yetadi. Alloh o'zining oxirgi dini Islomda iqtisodiy muammolarni hal qilish zakot asosida bo'lishini ko'rsatib qo'ygan. Bugungi kun tili bilan aytganimizda, iqtisodga zakot asos qilib, olinsa, so'ngra unga boshqa islomiy-iqtisodiy omillar qo'shilsa, iqtisodiy masala yechilgan bo'ladi. Zakot qat'iy farz amali bo'lib, hijratning ikkinchi yili farz qilingan. Uning yuksak va beqiyos hikmatlaridan asosiylari quyidagilardir:



Sharh:

1) Boylarni najot topganlardan bo'lishlari uchun bahillik kasalidan poklash, ularni foydali ishlarga o'rgatish.

2) Faqir va ojiz kishilarga yordam berish shu orqali ojiz va muhtoj kishilarning dardlariga darmon bo'lish, ularning g'am va qayg'ularini yengillatish. Mana shu tarzda boylar bilan kambag'allar orasida hurmat, muhabbat, birdamlik va mehr-shavqat paydo bo'ladi va yaxshilik kuchayadi.

3) Zakot tilanchilar hamda ishsizlar sonini kamaytiradi va shu tufayli jamiyatdagi jinoyatlar qabihliklar, tartibsizliklar yo'qoladi. Chunki, muhtoj bir kambag'al och qolgach, jamiyatda tartibsizliklar chiqarib, o'g'irlik qila boshlaydi. Ammo boylar tomonidan berilgan zakot tufayli moddiy ehtiyojlarini qondirsa,

jinoyat qilishdan boshqalarga zarar berishdan voz kechib, foydali va hayrli ishlarga kirishadi.

4) Zakot boylarning juda katta mablag'lar yig'ib, kambag'allarning iqtisodiy mahrum bo'lishlar natijasida yuzaga keladigan to'ntarish kabi tartibsizliklardan jamiyatni himoya qiladi. Agar boylar Alloh taoloning zakot to'g'risidagi amriga quloq solsalar, kambag'allar ham boylarning mollarida o'zlarining hissalarini borligini his qila olsalar, bu hol jamiyatdagi turli falokatlarning oldini olishga faqirlar boylarning mol-mulkini ko'paytirishda, ularga yordamchi bo'lishlariga hamda uni o'z mulkidek, himoya qilishlariga sabab bo'ladi.

5) Zakot, ne'matning shukronasidir. Chunki Alloh taolo bandalariga badaniy-moliyaviy ne'matlar bergan. Badan bilan qilinadigan ibodatlar badaniy, mol bilan qilinadigan ibodatlar moliyaviy ne'matlarning shukridir. Shunday ekan, boy-badavlat kishi kambag'al va daromadi ozligi tufayli boshqalarga muhtoj odamlarga qarab, Alloh taolo bergan ne'matlar bilan o'zining tilanchilikdan, boshqalarga muhtoj bo'lishdan qutqargan. Alloh taologa shukr etib, mulkidan juda ham oz qismini faqirlarga bermasa, u naqadar hasisdir.

6) Zakot farz bo'lishining boshqa hikmati esa, Alloh yo'lida kurashayotganlarning kuchlariga kuch qo'shib va askarlarga yordam bo'lib, islomning yoyilishidir. Faqir askar Alloh yo'lida o'zini fido qilgan bo'lsa, boylarning ham mol-mulkidan bir qismini ularga fido qilishi bundan kam emas. Sanab o'tilganlardan tashqari zakotning butun insoniyat uchun hayrli va fazilatli hikmatlari bordir.

Avval aytib o'tganimizdek, zakot islomdagi asosiy 5 ruknlardan biridir. U islomiy ibodat bo'lib, aqidaning ajralmas qismidir. Kim zakotni inkor etsa kofir, uni ado etmasa osiy bo'ladi.

Zakot imkoni bor musulmonga Alloh taolo tomonidan amr qilingan muqaddas burchdir. Musulmon kishi zakotga amal qilar ekan, iqtisodiy muomalaga emas, ilohiy ko'rsatmaga binoan shar'iy ibodat qiladi.

Imom G'azzoliy (r.a.): "Alloh taolo o'z bandasiga jon ne'mati va mol ne'mati bergandir. Badan ibodatlari jon ne'matining shukridir. Moliyaviy ibodatlar mol ne'matining shukridir"¹⁴¹ - deganlar.

Islom jamiyatidan boshqa jamiyatlarda bunday tushuncha yo'q. Zamonamizdagi ko'pgina moliyaviy muammolar aynan shu ruhning yetishmasligidan kelib chiqmoqda. Har bir musulmon boy vaqtida zakotini

¹⁴¹ Ali ibn Sulton Muhammad al-Qori. Fath bob al-inoya bi-sharh an-nuqoya. Shirka dor al-Arqam ibn Abi Arqam. Bayrut 1997. – 563 b

chiqarib bermasa, qolgan moliga xarom aralashib qolishi va halokatga uchrashini yahshi biladi.

Zakot ibodati zakot beruvchiga ham ko'plab foyda keltirar ekan. Demak, u jamiyatga ham katta foyda keltiradi. Shuning uchun ham, zakot ibodati tatbiq qilingan jamiyatlarda ko'pgina mushkulot muammolar o'z-o'zidan hal bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot masalasini olib ko'raylik. Islom bu masalani zakot orqali o'n besh asr oldin hal qilib qo'ygan. hozirgi zamonda esa, ko'p davlatlar bu muammoni hal qila olmay boshlari qotib yotibdi. Umuman, "ijtimoiy ta'minot" degan istilohni hozirgi jamiyat AQSh va Angliya orqali 1941-yildan ishlata boshladilar¹⁴². Ungacha bu narsa hayollariga ham kelmagan.

Zakot masalasi orqali ijtimoiy ta'minot masalasi hal etilishini tushunib yetish qiyin emas. Buning uchun zakotdan tushgan mablag' kimlarga sarflanishiga bir nazar solinsa, kifoya. Zakot quyidagi kishilarga berishi kerak:



¹⁴² 2021 yil 5 mart Vazirlar mahkamasining 122-son Aholini ijtimoiy 124 himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5319768>.

Zakot tufayli jamiyatda kambag'allik, tilanchilik, ko'chada qolgan kishilar, qarovsiz qolgan qariyalar va bolalar muammosi hamda shunga o'xshash ko'pgina muammolar hal etiladi.

Hozirgi kunda iqtisodiy muammolardan biri jamiyatdagi mavjud pul mablag'larining ma'lum bir joyga to'planib, aylanmay turib qolishi ekanini iqtisodchilar ko'p takrorlaydilar¹⁴³. Odamlar qo'lidagi pulni qaytarib ololmay hukumatlar, iqtisodiy muassasalar qiynaladilar. Naqd pulga ehtiyoj kamayib, yangi pul chiqarilaversa, pulning qadrining tushib ketishi ham sir emas. Zakot ila xuddi shu muammoni hal qilishga ham yo'l ochiladi. Har yili to'planib qolgan pulning ma'lum miqdori boylarning qo'lidan kambag'allarning qo'lga o'tadi va natijada aylanmay turib qolgan naqd pulning ma'lum miqdori o'z-o'zidan aylanishni boshlaydi.

Jamiyatda zakotga haqdor kishilardan bir toifasi qalblarini ulfat qilish zarur bo'lgan kishilardir. Ya'ni, islom jamiyatiga hayrixoh bo'lishlariga hojatlari tushadigan odamlardir. Bu toifaga yangi musulmon bo'lgan kishilar yoki musulmon bo'lishidan umid qilingan kishilar kiradi. Bu degani boshqa xalqlar vakillari bilan aloqalarni yaxshilash masalasida ham zakot xizmat qilayapdi, deganidir.

"Allohning yo'lida" degan bandga esa, asosan harbiy harajatlar kiradi. Ya'ni jamiyatdagi askar armiyani tutib turish uchun kerak bo'lgan sarf-harajatlarga ham zakotdan sarflanadi. Hozirgi kunda bu maqsaddagi sarf-harajatlar davlatlar uchun asosiy muammo bo'lib turganini hisobga olsak, bu bilan jamiyatning yana bir og'iri yengillashadi.

Bugungi kunda ko'pgina joylarda zakot ibodati ado etilmayotgani hech kimga sir emas. Ba'zi joylarda esa, qisman ado etilayotgani ham aniq. Ba'zi joylarda bu masalani qaytadan o'rganib, yo'lga qo'yish harakatlari ham bor.

Shu o'rinda tabiiy bir savol tug'uladi. Zakotni bermaslik oqibatida qanday jazolar bor?

Bu savolga Islom dini zakotni bermaganlar uchun faqat uxroviy jazo belgilash bilan kifoyalanib qolmagan. Balki bu dunyoda ham ular tortadiganlarini tortishlari mumkin. Bu dunyoviy o'qublatlar ham bir necha xil bo'ladi.

Ba'zilari Alloh taolo tomonidan balo ofatlarni yog'dirish orqali ham keladi.

¹⁴³ A.Vaxabov. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 152 b.

Imom Taboroniy, Hakim va Bayhaqiylar rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz s.a.v: "Qaysi bir qavm zakotni bermasa, albatta, Alloh ularni qahatchilikka giriftor qiladi"¹⁴⁴, deganlar.

Kambag'allarni haqini paymol qilgan har qanday jamiyat ana shu ofatga loyiqdir. Hozirgi kunda ba'zi yurtlarda ocharchilik-qahatchilik bo'lib turgani ham bejiz emas, o'sha yurtlarda bo'layotgan qahatchilik boshqalarga saboq bo'lishi kerak.

Imom ibn Moja, Bayhaqiy, Bazzor va Hakimlar ibn Umar r.a dan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh s.a.v: "Mollarining zakotini bermasalar, albatta, osmondan yomg'ir yog'mas"¹⁴⁵, deganlar.

Demak, ba'zi yurtlarda bo'lib turgan qurg'oychiliklar ham bejiz emas. Bu hadislar ham beva bechora, kambag'al miskinlarning haqini paymol qilgan jamiyatlarda yuzaga keladi.

"Imom Buhoriy, Imom Shofiy, Imom Bayhayiylar rivoyat qilgan hadisda esa Rasululloh s.a.v : "Qaysi molga sadaqa , zakot aralashgan bo'lsa, albatta uni buzadi"¹⁴⁶, deganlar. Ya'ni, zakotni bermasa ham boy bo'la turib, zakot olib moliga qo'shib olsa ham, o'sha zakot molining hammasi halok bo'lishiga sabab bo'lar ekan.

Xulosa

Zakot tengi yo'q nizomdir. Uni quyidagi nizomlarga qiyoslash mumkin.

¹⁴⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Savdo, ziroat va vaqf. – Toshkent: Hilol-nashr. 2022. – 312 b.

¹⁴⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Zakot sadaqalar nazrlar va kafforatlar. – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – 240 b.

¹⁴⁶ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Mo'minning najoti. Mufassal zakot kitobi. – Toshkent: Hilol-nashr, 2021. – 200 b.



Ular haqida yuqorida qo'limdan kelganicha ochib berishga harakat qildim. Zakotni bugungi kunda ko'pgina ajnabiy va musulmon bo'lmagan kishilar ham yuqori baholab kelmoqdalar. Misol tariqasida, bir necha olimlarning fikr-mulohazalarini keltirish mumkin.

Mashhur olim Tomas Orland "Islomga da'vat" kitobida shunday yozadi: " Haj nizomi bilan birga, zakotning ham boshqa bir farz ekanini ko'ramiz. Bu musulmonlarga Allohning "Albatta, mo'minlar birodardirlar" degan so'zini eslatib turadi. Zakot go'zal bir sifatda yuzaga kelgan diniy nazariyadir. U kishini hayratga soladigan darajada ajoyib. Islom jamiyatida yangi musulmonga nisbatan uning jinsi, rangi va o'tmishidan qat'iy nazar shavqat namunasi tariqasida namoyon bo'ladi. U mo'minlar jumlasiga qabul qilinadi va boshqa musulmonlar bilan bir qatorda o'z joyini topadi"¹⁴⁷.

Miyud Rush bo'lsa, quyidagilarni aytadi: "Olamni mashg'ul qilib turgan ikki ijtimoiy muammoning hal qilinishini Islomda topdim:

1.Qur'onda Allohning "Albatta, mo'minlar birodardirlar" degan so'zini. Bu ishtirokiyya-sosializmning eng go'zal asosidir.

¹⁴⁷ Y.Tursunov. O'zbekiton Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. – Toshkent: 2011. – 279 b.

2. Har bir mol, egasiga zakotni farz qilinishidir. Hamda faqirlarga agar boylar berishga mone'lik qilsalar, uni kuch bilan bo'lsa ham olish haqining berilganidir. Bu esa beboshlikning da'vosidir¹⁴⁸.

“Islom va arab sivilizatsiyasi” nomli asarda ajnabiy olimlardan yana biri shunday degan: “Bu (zakot) soliq diniy farz bo'lib, uni hamma ado qilishi lozim. Zakot umum ijtimoiy nizom. U ila Muhammadiy davlat faqirlarga madad beradi va ularni boy qiladi. Bu yaxshi nizom asosida, istibdod va majburlashga, vaqtinchalik tadbirga suyanmay bo'ladigan ishdir.

Islom ushbu qoyilmaqom nizomga bashriyat tarixida birinchi bo'lib asos solgan. Zakot solig'i boy, tojir va mol egalaridan davlat tomonidan olinib, miskin va ojizlarga beriladi. U bir davlatda yashovchi kishilar orasidagi to'siqni parchalab taslab, millatni bir odil ijtimoiy doirada birlashtiradi. Shu orqali islom nizomi “o'zim bo'lay” fikri asosida emasligiga yorqin dalildir”.

Bunga o'xshash ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, zakot farz amalidir va uni tark qilgan kishilarga albatta jazo muqarrardir. Barchamizga zakot amalini ado qilib, o'zi bergan ne'matlarni poklashlikni Alloh taolo nasib etsin.

MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Savdo, ziroat va vaqf. – Toshkent: Hilol-nashr. 2022. – 312 b.
2. A.Vaxabov. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 152 b.3
3. Y.Tursunov. O'zbekiton Respublikasining ijtimoiy ta'minot huquqi. – Toshkent: 2011. – 279 b.
4. Yo.Islom. Islomda boylik va kambag'allikka munosabat. – Toshkent: Qaqnus-media, 2019. – 160 b.

¹⁴⁸ Yo.Islom. Islomda boylik va kambag'allikka munosabat. – Toshkent: Qaqnus-media, 2019. – 160 b.